

BADIIY TARJIMA VA MILLIY KOLORIT MUAMMOLARI (A. CHO'LPONING « KECHA VA KUNDUZ » ASARI TARJIMASI ASOSIDA)

Yahyoyeva Zebiniso

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: zeboyaxyoyeva@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada badiiy tarjimada va tarjima qilish jarayonida uchraydigan milliy kolorit muammolari tahlil qilingan. Asarni tarjima qilish jarayonida tarjimonning mahorati, badiiy matn asosiy tushunchalarini kitobxonga yetkazib berishdagi tarjimonning lingvistik yondashuvi o'rganilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы национального колорита, возникающие в художественном переводе и процессе перевода. В процессе перевода произведения изучались профессионализм переводчика, лингвистический подход переводчика в донесении до читателя основных понятий художественного текста.

Annotation: This article analyzes the problems of national color that arise in literary translation and translation process. In the process of translating the work, the translator's professionalism and the translator's linguistic approach in conveying to the reader the basic concepts of the literary text were studied.

Kirish. Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, tarjimashunoslik umuman, filologiya tarixida uni o'rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug'ullangan V. Vinogradov o'zining "Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari" nomli ma'ruzasida badiiy adabiyot tili to'g'risida gap ketganda, "til" so'zi ikki xil ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi, ya'ni: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi "nutq" yoki "matn" (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil materiali) ma'nosida; 2) «san'at tili», badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida. Bu o'rinda buyuk adib P. Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: "Haykallar misdan marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning musiqa, rassomchilik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglari chiziqlar, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'zlar vositasi bilan yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday adabiy asarning spesifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi".

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin.

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgalchiliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va

mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi.

1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi.

2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi.

3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi.

4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi. Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” atamasi bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi”, “tilning badiiy vazifasi”, “tilning estetik vazifasi” kabi atamalar ham qo'llanadi [1]. Ammo shuni ham aytish kerakki, “tilning estetik vazifasi” atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi ancha keng.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Albatta har qanday badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi o'rinda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: “Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida halqiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi”. Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tilning bu o'ziga xos estetik vazifasi namoyon bo'ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biron bir nutq ko'rinishida til o'zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma'noda tilshunos D. N. Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: “Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz”. Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning estetik vazifasi o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu “nima”ni qanday ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq tilning bu vazifasi ishga tushadi. Jonli so'zlashuv, kundalik muloqot jarayonidagi ko'pdan-ko'p o'tkir hazillar, latifanamo kulgilar, chuqur ma'noli so'z o'yinlari, kimlargadir taqlid qilishlar va hokazo holatlarda ham til belgisi, uning badiiy-ifoda imkoniyatlariga o'z-o'zidan diqqat qilinadiki, bunda tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy asar tilini o'rganishdagi ikkinchi, ya'ni lingvopoetik yo'nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tarjimasunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rganish qiyin [2].

-Tahlil va natijalar (Analysis and results). A. Cho'lponning “Kecha va kunduz” asarining fransuz tiliga tarjimasida yozuvchi va tarjimon qarashlari tahlili qanchalik keng ekanligi aniq ko'rinib turibdi. Mazkur asarda tarjimon badiiy tarjimaning vazifalarini tushunib, tarjimani original asarda qayta ifodaladi. Bu birinchi navbatda milliy o'ziga xoslik bilan bog'liq original asar hisoblanib, uning tarjimasida Stefan A. Dyudinon o'zining tarjima borasidagi mahoratini

namoyish etgan. U tarjima jarayonida badiiy tarjimaga alohida e'tibor qaratadi, shu bilan bir qatorda o'zbek milliy –madaniy so'zlariga mulohazalar bildiradi. Stefan A. Dyudinon tarjimasida "Nuit" asarini o'qiyotganda e'tiborni tortadigan birinchi narsa - bu qo'shtirnoq ichida alohida ajratib ko'rsatilgan so'zlardir. Asliyotning birinchi misrasida *“Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...”* bo'lsa, tarjimada *“La joie des premiers jours du printemps commençait de chatouiller les coeurs. Un sang chaud de nouveau coulait dans le corps transi de la nature”* sifatida tarjima qilinadi hamda juda aniq va nozik leksik xususiyatlarini o'zida namoyon etadi. Ushbu misolda tarjimonning jumladagi barcha elementlarni tarjima qilgani yaqqol ko'zga tashlanadi va bunday tarjima asarni mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Xuddi shu holatda tarjimon barcha imkoniyatlaridan foydalanib, asl matnga hurmat ko'rsatish, asliyat, tarjimalarning milliy o'ziga xosligini yetkazish kabi buyuk vazifalarni o'z zimmasiga oldi. XX-asrda o'zbek adabiyotining iste'dodli hamda eng ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Abdulhamid Cho'lponning « Kecha va kunduz » asarini Stefan A. Dyudinon fransuz tiliga badiiy mahorat va asarning yuksak jozibasini saqlab qolgan holda tarjima qildi. Uning mohir tarjimasini tufayli ushbu durdona asar fransuz tilida so'zlashuvchi kitobxonning e'tiboriga havola etildi.

“So'z bilan surat chizish” degan obrazli ibora realistik tasvirda badiiy tilning tutgan o'rnini juda aniq belgilab beradi. Qalamga olingan har bir odamni, har bir ashyoni, har bir joyni ko'zga yaqqol ko'rinadigan qilib tasvirlash uchun yozuvchi eng avval o'sha odam, o'sha joyni xayolida juda aniq va to'la – to'kis gavdalanitiradi, keyin ularni qog'ozda ham tirik va ta'sirli qilib gavdalanitirib berish uchun kerakli so'z va iboralar hali tarashlanmagan marmar shaklida bo'ladi. Haykaltarosh qo'pol bir toshni tarashlab, undan nafis obraz yaratishga qancha kuch, vaqt sarflasa, yozuvchi ham hali ishlanmagan til materialiga sayqal berib, uni ko'zga yaqqol ko'rinadigan aniq tasvirga aylantirguncha o'shanchalik mehnat qiladi. [3]. Buni asarda keltirilgan quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin. “Razzoq so'fida unday quvvat ortig'i bilan bor. Bu odam jadidnamo bir hamshahrining deganidek, “ko'rgazmada qo'yilatugan antiqa maxluqlardan edi”.

Tarjimada :

“De cette force, au moins, Razzaq Soufi ne manquait pas. L' homme, selon le mot d'un moderniste de ses compatriotes, faisait partie de ses “curiosités d'un autre age que l'on montre dans les expositions”. Mazkur tarjimani asl matni bilan taqqoslaganda, shuni ta'kidlash joizki, muallif bu yerda so'zlar vositasida surat chizadi. Bu suratning ta'sir kuchi shundaki, biz Razzoq so'fi obrazini qog'ozda emas, hayotda o'zimiz ko'rayotgandek aniq tasavvur qilamiz. Aniq va yorqin tasvir, tarjimonning mohirona tarjimasini esa bizni asar hayotining ichiga olib kirib, asarning voqea – hodisalariga bizni ishtirokchi qilib qo'yadi.

Biror predmet, narsa, voqelik, belgi yoki harakat nutqda boshqa predmet, narsa, voqelik, belgi yoki harakatning nomi bilan vaqtincha ifodalanib kelishi mumkin. Bunday hodisa tilshunoslikda nutqiy ko'chma ma'no hosil bo'lishi deb ataladi. [4]. Nutqiy ko'chma ma'noni yuzaga keltiruvchi obyektlar o'rtasidagi munosabat esa turlicha xarakterga ega. Metafora usulidagi ma'no ko'chishida narsa hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Tabiatan metaforani yashirin o'xshashlik deb atash mumkin. Yashirin o'xshashlik deb atalishiga sabab shuki, metaforada o'xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgan holda o'xshatilayotgan narsa uning ma'nosini bildiradi. Tabiiyki, bunday o'xshatilayotgan narsalardan aynan o'xshashlik talab qilinmaydi, ikki narsa hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, “*Qafasning darichasi ochildi! Endi qushlarga qanotlarini rostlab turib : “pirr” eta uchmoqdan, keng*

ko'klarga, fazolarga parvoz qilmoqdan boshqa narsa qolmadi. Paranjini yopinib o'tirmasdan, shundoq bosh ustiga tashlab, chimmatni "xo'ja ko'rsin"ga tutgan bo'lib yugurish kerak, xolos..."

Tarjimada:

“La porte de la cage était ouverte ! Il ne restait aux deux rossignols qu'à lisser leurs plumes, à prendre leur envol et à s'élancer toujours plus haut dans l'étendue blutée au ciel. Il était temps de se ruer au dehors, *le parandji* jeté sur les épaules et *le tchatchvan* “à la grace de Dieu” ...

Inson nutqi juda murakkab ma'naviy va jismoniy jarayonlarning yakunlaridir. Odamning miyasida va tanasida tuyg'ular, g'oyalar, emotsiyalar oqimi tinimsiz harakatlanib turadi va ular ma'lum jismoniy harakatlarga olib keladi. Odam uzluksiz jestlar – harakatlar qiladi. Jestdan keyin so'z keladi. Adib o'z personajlarining ruhidagi harakatni – jestni to'g'ri topa bilgan, ya'ni tasvirlayotgan obrazni juda aniq ko'z oldiga keltirib, go'yo ko'rib turgandek tasvirleydi. Garchi tarjimon ushbu misolda aks etgan parangi, chachvon kabi tarixiy so'zlarni o'z holicha qoldirgan bo'lsa-da, asarning ma'nosi hech qanday zarar ko'rmadi, aksincha kitobxonlar o'sha davrdagi ayollar liboslari haqida ma'lumotga ega bo'ldilar. Yozuvchining umumxalq tilida mavjud so'zlardan odatdagidan o'zgacharoq foydalanishi quyidagicha badiiy-estetik maqsadlar bilan yuz beradi:

Davr koloritini (ruhini) berish uchun lug'atdagi eskirgan so'zlar – arxaizm va istorizmlar odatdagi so'zlashuvda ishlatilmasligi ma'lum. Biroq ular tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda davr koloritini berish uchun juda zarur. Deylik, o'z asarida XX asr voqeligini tasvirlayotgan ijodkor, tabiiyki, o'sha davrdagiga xos realiyalarni qo'llashi lozim bo'ladi. Ya'ni, o'sha davr koloritini o'sha davrga xos bo'lgan narsa-buyumlar, hodisalar, tushunchalar va nomlarisiz to'la tasvirlab bo'lmaydi. Ikkinchi tomondan, XX asr muhitida harakatlanayotgan personaj ham shunga mos so'zlar va so'z shakllarini ishlatishi obrazning ishonarli va to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi [5]. Aytaylik, o'zbek tilida so'zlashuvchilar hududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o'sha hudud kishilarigagina xos bo'lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o'z aksini topadi. Shunday ekan, asarda tasvirlanayotgan hududga xos bo'yoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personajlar xarakterini to'laqonli badiiy talqin etish uchun dealektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

-Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations). Milliy-madaniy so'zlarning tarjimada berilishining ham o'z tartib qoidalari mavjud. Tahlillar va nazariy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tarjima qoidalari barcha so'zlar uchun umumiy bo'lsada, milliy madaniyatimizga xos so'zlarning sharhi va izohlanish qoidalari xususida asosan tarjimashunos olimlar shug'ullanishgan. Aksariyat hollarda lug'atlarda kiritiladigan bunday so'zlar maxsus ko'rsatmalar asosida yoritilmagan. Shuning uchun ham milliy-madaniy so'zlarning sharhini to'g'ri berish uchun tarjimonlar tajribasiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi [6]. Zero amerikalik sotsiolog E.Nida ta'kidlaganidek, tarjima bir tildan ikkinchi tilga yangi tushunchalarni etkazib beruvchi vositadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “til”obrazga nisbatan formadir (shakldir), obraz esa asarning g'oyasiga nisbatan formadir. Bu to'g'ri fikrga qo'shimcha qilib shuni aytish lozimki, badiiy til obrazga nisbatan forma bo'lish bilan birga, shu formani mazmunga bog'lab turuvchi asosiy “ko'prik” hamdir. Adabiy jarayon hamisha daryoday harakatlanib turadi [7]. Mana shu harakat paytida goh shakl birdan mazmunga, goh mazmun birdan shaklga aylanib ketadi. Chunki, badiiy adabiyot hamisha mazmunli bo'lishini, mazmunning esa hamisha aniq va muayyan shaklda ro'yobga chiqishini taqozo qiladi. Yozuvchi mana shu talablarga javob berishi uchun hayotiy voqealarning va insoniy xarakterlarning umumiy mohiyatini ochish bilan cheklanmaydi, balki har

bir voqea, har bir xarakterning o'ziga xos konkret shaklini til vositasi bilan tasvirlab, obrazli tafakkur yordamida ifoda etadi.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
2. Sodiqov S. So'z san'ati jozibas.- Toshkent,1996
3. Timofeev L.I Osnovi teorii literaturi . – M. 1983. – S. 177
4. Gorelikova M. I., Magomedova D.M. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta. M-1984-1999. – C.13 –24.
5. Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati .– Toshkent: O'zadabiy nahsr, 1962.– 173-174.
6. Qobiljonova G.K., Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini, NDA- Toshkent, 2000.
7. Xudojestvenniy perevod i problema natsionalnogo kolorita// Fidiuaz-2003. -№ 4.-S.36-39.
8. Kunitsina, E. Yu. Proizvedeniye i tekst: ' k voprosu ob obyekte xudojestvennogo perevoda [Tekst] / Kunitsina, E. Yu // Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. Ser. Filologiya. Iskusstvovedeniye. . 37. - 2009. - № 35 (173). - S. 95-99.